

Majitov Shuxrat Murtazoyevich
 Navoiy davlat pedagogika instituti
 san'atshunoslik fakulteti
 musiqa ta'limi kafedrası dotsent v.b.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKLOTLARI TARBIYALANUVCHILARINING MUSIQIY SAVODINI OSHIRISHDA MULTIMEDIA VA AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini musiqa savodiga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda bolaning xotiraga olish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining musiqiy savodini, multimediali mashg'ulotlar orqali malakalarini shakllantirishda, oliy ta'lim o'quv tizimida, maktabgacha ta'lim tashkilotlari musiqa rahbarlariga yo'nalish berish va ularga yangi innovatsion texnologiyalarda mashg'ulotlarni olib borishda asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: Sorbix, konsepsiy, modul, genezisi, interfeys, konsepsiya, differensial, animatsiya, mediata'lim, intellektual.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ И ИНФОРМАЦИОННО- КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ МУЗЫКАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Аннотация: Использование мультимедийных технологий при обучении детей дошкольных образовательных организаций изучению музыки имеет большое значение в повышении эффективности обучения, а также в развитии способности ребенка к запоминанию. Она является основой формирования музыкальной грамотности и навыков воспитанников дошкольных образовательных организаций посредством мультимедийного обучения, в образовательной системе высшего образования, для ориентации музыкальных руководителей дошкольных образовательных организаций и проведения обучения их новым инновационным технологиям.

Ключевые слова: Сорбикс, концептуальный, модуль, генезис, интерфейс, концепт, дифференциал, анимация, медиаобразование, интеллектуальный.

THE USE OF MULTIMEDIA AND INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE MUSICAL LITERACY OF PUPILS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstract: The use of multimedia technologies when teaching children of preschool educational organizations to study music is of great importance in increasing the effectiveness of learning, as well as in developing the child's ability to remember. It is the basis for the formation of musical literacy and skills of pupils of preschool educational organizations through multimedia learning, in the educational system of higher education, for orienting musical directors of preschool educational organizations and training them in new innovative technologies.

Keywords: Sorbix, conceptual, module, genesis, interface, concept, differential, animation, media education, intellectual.

Jahon ta'lim tizimida fan va innovatsion faoliyatning yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda-musiqa tarbiyasi, uning taraqqiyoti timsolida yurtimizning porloq kelajagini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan, estetik tarbiyasining vazifalari bilan bog'liq bo'lib, umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatga jalb etish, badiiy musiqaga estetik idrok etishni va emotsional o'zlashtirishni rivojlantirish, musiqali qobiliyatni o'stirish, musiqali didni shakllantirish, bolalarda badiiy ijodkorlik iqtidorini rivojlantirishdan iborat bo'lishiga oid vazifa va mazmunini aniqlash muhimdir ilk marotaba ushbu muammolarning dolzarbligiga oid jahon olimlarining diqqatini jalb etgan tizimda, bolalar bog'chasini tashkil etishda mashhur nemis pedagogi Fridrix Fryobelning zamonaviy g'oyasi bilan amalga oshgan.

XIX asrning 40-yillarida Germaniyaning Sorbix deb ataladigan kichik shaharchasida «bolalarni parvarishlash tashkiloti» tashkil etilganligi jahon tarixida ma'lum. Dunyodagi har bir davlat maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimining rivojlanishiga o'z faoliyatidan kelib chiqqan holda rejalar dasturi va "konsepsiya"si asosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirib kelmoqda.

Respublikamizda uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va innovatsion texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarni yoshiga qarab turli musiqiy-multimedialar orqali bilim-ko'nikma va malakalarini shakllantirish va bosqichma-bosqich maktabga tayyorlab borish metodlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshirilishi lozimdir.

Maktabgacha tayyorlov guruh bolalarini musiqiy savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanishning turli xil shakl va usullarini o'rgatish davr talabi hisoblanadi.

Xo'sh multimedia tizimlari to'g'risida nimalarni bilamiz?

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish metodikasida ushunning lug'aviy ma'nosi (multim-mediur yoki multi-media) ikkita so'z yig'indisidan tashkil topgan bo'lib, multi – ko'p, media – muhit ma'nosini anglatishi ta'kidlangan. Atama ilmiy va o'quv adabiyotlarida «ko'p vositalilik», «multimedia muhiti», «ko'p qatlamli muhit», «ma'lumot tashuvchi vosita» kabi talqin qilinib kelinmoqda.

Hozirgi davrda multimedia atamasi ko'p qirrali bo'lib, turli xil tushunchalarni ifodalashga tatbiq etib kelinmoqda. Masalan, multimedia texnologiyasi, multimedia mahsuloti, multimediali kompyuter, multimedia dasturi va boshqalar shular jumlasidandir. «Multimedia» tushunchasining adabiyotlarda yoritilgan bir nechta ta'rifini keltiramiz: «Multimedia deganda turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi». «Multimedia – bir vaqtning o'zida turli ko'rinishdagi axborotlardan: matn, grafika, tovush va boshqalardan foydalanishni ko'zda tutgan foydalanuvchi interfeysining konsepsiyasi»dir.

Multimedia bu–zamonaviy kompyuter axborot texnologiyasi bo'lib, u kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvir, grafik tasvirlar va animatsiya (multiplikatsiyalar) shaklidagi axborotlarni birlashtiradi. Multimedia bu–matn, grafika, animatsiya, harakatsiz tasvirlarni raqamlashtirish, video, tovush va nutq shaklidagi axborotlarni kompyuter yordamida yoritish, ishlov berish, saqlash, uzatish va aks ettiruvchi texnologiyalar majmuidir [6].

Multimedia mashg'ulotlari uch tamoyilga asoslanadi:

1. Inson tomonidan idrok qilinayotgan muhitlar to'plami kombinatsiyasi yordamida axborotlarni taqdim etishdir.

2. Mahsulot mazmunida bir necha syujet yo'llarining mavjudligi (jumladan, «erkin qidirish» asosida foydalanuvchi tomonidan axborot mahsuloti mazmuniga mos doirada taqdim qilingan axborot);

3. Interfeys va navigatsiya vositalarining badiiy dizayni, axborotlarni taqdim qilishdagi multimedia texnologiyalarining samarasi va xususiyatlari, uning quyidagi imkoniyatlarida yaqqol ko'rinadi:

Pedagogik jihatlari. Pedagogika nuqtai nazaridan, multimedia texnologiyasining maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilishi–ularga kompyuterlar

asosida yangicha texnologik yondashuv hisoblanadi. Shuning uchun multimedia texnologiyasini o'ziga xos belgilari, xususiyatlari va musiqiy fanlarga xos har birining tom ma'nodagi metodlari va yetaklovchi konsepsiyasi mavjud. Bular; Asosiy belgilari–texnik vositalardan foydalanish, tarbiyalanuvchilarning bilimlarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish. Ta'lim samaradorligini oshirish, monitor ekraniga qarab va ekrandagi materiallardan foydalanib, bilim olishdan iborat. Multimedia texnologiyasidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bir vaqtning o'zida 6,7 yoshli bolalarda kompyuter savodxonliklarini shakllanishiga ham olib keladi.

Multimediali kompyuter texnologiyasida esa u ko'rgazmali vositadan tashqari, ta'lim manbai sifatida mujassamlanadi, ya'ni o'rganiladigan material oldindan kompyuter xotirasiga kiritilgan bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari kompyuter monitori ekranida namoyish etiladigan materiallaridan o'rgana borsalar va yetarlicha ko'nikma hosil qilsalar, kelajakda maktab va litseylarda yoki oliy o'quv yurtida kompyuter ekranidan ma'lumotlarni qabul qilib olishda qulaylik tug'diradi. Shu bilan birga tarbiyalanuvchilarning kompyuterdan foydalanish jarayonida mantiqiy tafakkurlari rivojlanadi, bilim olishga orzu-havaslari va ishtiyoqlari ortadi, dunyoqarashlari kengayadi.

Psixologik jihatlari. Bolalarning yoshlarini va fikrlash darajalarini hisobga olish, bolalarning ta'lim materialini xotiralarida saqlash imkoniyatlarini hisobga olish, kompyuter bilan ishlaganda ko'z toliqishini oldini olish, bolalarning xotiralarini rivojlantirish, shuningdek, diqqatlarini barqarorlashtirish, ta'lim materiallariga qiziqishlarini orttirish, his-hayajon uyg'otish, kompyuterda ishlash qobiliyatlarini o'stirishlar kabi psixologik jihatlarni tashkil etadi.

Monitor ekranida tasvirni ko'rganda va o'qiyotganda bola miyasining ikkala yarim shari bir vaqtda ishlaydi va ob'ekt obrazi bir vaqtda qabul qilib olinadi. Bolalarda miya faoliyatining differensial qo'zg'alishida ong va ong osti harakatlar me'zonining ijodiy kompozitsiyasi kabi, shaxs sifatida ob'ektiv va sub'ektivligi natijalarini multimedialarga asoslanib shakllanishini tezlashtirishga olib keladi.

Ushbu masalalarga oid san'atshunos olimlardan S.B. Saidiy tadqiqotlarida 1990 yillardagi ong va ong osti harakatlar me'zonining differensial psixoterapevtikasi va neyropsixologiyaning inson tanasidagi qo'zg'alish jarayonidagi natijalarining sub'ektiv va ob'ektiv hamda salbiy va ijobiy ko'rinishlarini psixologik jihatdan tashxislarda asoslab bergan. S.B. Saidiyning ilmiy nuqtai nazarini esa psixologiya fanlari doktori, Xalqaro psixologiya ilmiy akademiyasining haqiqiy a'zosi, akademik, professor Sh.R. Barotov ham o'rganib ma'qullaganligi diqqatga sazovordir.

Animatsiyali ma'lumotlarning insonga ta'sirchanligi katta bo'lib, undan maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bolalarning diqqatlarini ko'proq jalb qilish xususiyatiga ega.

Multimedianing bir vaqtning o'zida ham ko'rish, ham eshitish orqali bilim olishning samarali ekanligi, hayotiy tajribada allaqachon sinovdan o'tgan. Masalan, xalqimizda bu to'g'rida «yuz marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rmoq yaxshi» degan maqoli bor. Psixologlar ham bir vaqtning o'zida ham ko'rish, ham eshitish orqali bilim berishda o'zlashtirish yuqori bo'lishini ta'kidlab kelmoqdalar.

Bu borada S.S.G'ulomov va boshqalar quyidagilarni ta'kidlaydilar: «Agar bolalar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolishi 25-30% ga oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab borish 75% ga ortadi». Psixologlarning ta'kidlashlaricha, bolalar asbob-uskunalarga, texnik qurilmalar va transport vositalarining modellariga, o'yinchoqlarga juda qiziquvchan bo'ladilar. Shular qatorida, ular bilan ishlash ham bolalarning o'rganilayotgan materiallariga nisbatan qiziqishlarini orttirib, bilim olishga ishtiyoqlarini kuchaytiradi, ko'nikma hosil qiladi va fikrlash doirasi oshadi.

Musiqa bola hissiyoti va intilishiga, mazmuniga va his etishiga katta ta'sirini hisobga olganda, haqqoniy va voqeylikni to'g'ri aks ettirgan musiqali asardan o'rinli foydalanish alohida o'rin tutadi. Musiqiy san'at uchun odamning fikrlash va ifodalash hissiyoti asos bo'lib xizmat qiladi. Musiqi to'vush bilan hamohanglik rivojida dastlab nutq va raqs bilan bog'liq bo'lgan

edi. Musiqa mehnat harakati ritmi bilan moslashib, bir maqsadga intilayotgan kishilarni birbirlariga birlashtirishni osonlashtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi uchun mo'ljallangan kompyuterli o'yin dasturlarining barchasi ham ta'lim jarayonida o'z samarasini beravermaydi. Shuning uchun ham kompyuter o'yinlarini tanlash va ulardan foydalanish uchun jiddiy yondashuv va e'tibor kerak bo'ladi.

Kompyuterli o'yin dasturlari shunday yaratilgan bo'lishi kerakki, unda bajariladigan har bir harakat bolalar tomonidan to'g'ri qabul qilinishi, bajarilishi va tasavvur etilishi lozim. O'yin dasturidagi har bir harakatni bola tushuna olishi, uni qanday bajarish kerakligini o'ylash va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning axborot texnologiyalari bo'yicha boshlang'ich savodxonligini ham oshirish zarur, ya'ni kompyuterning umumiy tuzilishi, asosiy qurilmalari to'g'risida umumiy tushunchalarni, klaviaturadan foydalana olish malakalarini hosil qilish mumkin. Bu ishlar tarbiyalanuvchilarning kompyuter o'yinlaridan foydalana olish bo'yicha malaka va ko'nikmalari shakllanishida asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kompyuterli o'yin dasturlaridan foydalanish, tarbiyalanuvchilarda bir qator ijobiy sifatlarning shakllanishi va mustahkamlanishiga imkoniyat yaratadi:

- o'z qobiliyati va iqtidorini namoyish qilish imkonini beradi;
- mustaqil harakat qilishga zamin yaratadi;
- muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- insonlar bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatadi;
- o'z-o'zini nazorat qilishni shakllantiradi;
- tarbiyalanuvchilarda obrazli tasavvur va obrazli fikrlash rivojlanadi;
- nutq, kreativ fikrlash va kognitiv qobiliyatlar rivojlanadi.

Kompyuterli o'yin dasturlaridan tashqari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun kompyuterli nashrlar, shu jumladan, ijodiy ishlanmalar, xayoliy sayohatlar va boshqa elektron axborot resurslari yaratilmoqdaki, ulardan foydalanish bugungi kunda o'z samarasini ko'rsatmoqda. Buning uchun esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida elektron axborot resurslaridan samarali foydalangan holda elektron hujjat almashuvi yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim.

Bu faoliyatning samaradorligi tarbiyachi-pedagoglarning ta'lim-tarbiya jarayoniga shu texnologiyalarni qo'llashga doir bilim, ko'nikma va malakalari darajasi va amaliy ish tajribalariga ham bog'liq bo'ladi. boshqacha aytganda, maktabgacha ta'lim tizimida axborot - kommunikatsion texnologiyalardan mukammal foydalanish uchun asosiy e'tibor, eng avvalo, talab qilinadigan sharoitni yaratish hamda ta'lim-tarbiya jarayonlarida zamonaviy elektron axborot va uslubiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilishi lozim.

Bugun mamlakatimiz istiqlool sharofati tufayli barcha fan sohalarini, rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlarini o'rgandi. Umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish va hayotimizga tatbiq etish davri keldi. Hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantiriladi. Eng muhimi, bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra, o'quv jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi.

Buning natijasida shaxs o'z «men»ini anglay boshlaydi va boyitadi, tashqi dunyo bilan bo'lgan aloqasida esa o'zining ijtimoiy rolini topa oladi, yaratuvchilik qobiliyati shakllanadi. Zero, o'z-o'zini rivojlantirish ustida doimo ish olib boradigan, yuksak ma'naviyatli, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridandir.

Multimediali kompyuter texnologiyasidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish, bir vaqtning o'zida, bolalarning kompyuter savodxonligi shakllanishiga ham olib keladi. Animatsiyali ma'lumotlarning insonga ta'siri katta bo'lib, undan "Maktabgacha ta'lim tashkilot"lari ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bolalar diqqatini ko'proq jalb qilish xususiyatiga ega. Multimediali

ta'lim bir vaqtning o'zida ham ko'rish, ham eshitish orqali bilim olish uchun samarali ekanligi hayotiy tajribada allaqachon isbotlangan.

Multimedia gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

Axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, video filmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy mahsulotda (tiklash, to'ldirish) integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari: mikrofon, audiotizimlar, optik kompakt-disklar, televizor, video magnitofon, video kamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi;

Multimedia vositalari asosida ta'lim-tarbiya berish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia bu—informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materiallarini maktabgacha yoshdagi bolalarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir.

Media mashg'ulotlarning afzal jihati shundaki, ta'lim jarayonida bolalarning mustaqil ijod qila olish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu munosabat bilan mediamashg'ulotlar mazmunini belgilash, tashkil etishda faqatgina o'quv fani mazmuni nuqtai nazaridan yondashmasdan, balki uning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi tomonlarini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Mediamashg'ulot axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, ya'ni kerakli axborotni olish, uni yangi texnik vositalar yordamida qayta ishlash, amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi talab etiladi.

Mediamashg'ulotlar kompyuterlashtirilgan o'quv xonalarida, multimedia proyektor yordamida o'tkaziladi. Bu mashg'ulotni tashkil etishning o'ziga yarasha sanitariya-gigiyena me'yorlari, bolalarning uzluksiz ishlash me'yorlari mavjud:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini musiqa savodiga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda bolaning xotiraga olish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

- Maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanilgan holda mashg'ulotni amalga oshirish lozimligi; va bu esa, noan'anaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishdir.

- Multimediali vositasidan foydalanilgani uchun tarbiyalanuvchilarning mashg'ulot materiallariga bo'lgan qiziqishlari ortadi.

- Kompyuterda notalarni yozishni va topshiriqlarni monitor ekranida bajarishni, notalar va qo'shiqlarni talaffuz etishni, multimediali seriallardan foydalanib mashg'ulotlar o'tilganda o'zlashtirish samaradorligi ortadi.

- Maktabgacha ta'limda bolalar, asosan, notalarning tuzilishi, sanalishi hamda qo'shiq kuylashdagi turli holatlarini bilishi, qo'shiqlarni ijro etganda qo'shiq turlarini farqlay olishi hamda qo'shiq janrlarini bilishi, bola ongini tezkor sur'atda rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishiga erishiladi.

- Multimediali mashg'ulotlar vositasida bola bir vaqtning o'zida ham ko'rib, ham eshitib o'zi ishtirok etsa 76,4% bola xotirasida qolishi ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining musiqiy savodini multimediali mashg'ulotlar vositasida shakllantirish uchun, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida alohida musiqa xonasi bo'lishi, texnika vositalaridan kompyuter, video doska, bolalarni musiqiy savodini rivojlantirish uchun turli xil slaydlar, bolalarni yoshiga qarab o'zbek va rus tillarida multimedialar jamlanmasi bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Majitov Sh.M. Maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol usullar asosida bolalarning musiqiy bilimlarini shakllantirishda multimedialarning ahamiyati. Monografiya. p.5-8, (2023).

2. Донгаузер Е.В. Музыкальное образование в немецких народных школах (на примере федеральной земли Бавария) //Музыка в школе. - № 2.р.165. (2003)
- 3.Хоффманн Э. (Ред): Фридрих Фрëбель. Из опыта работы в немецком детском саду // Дошкольное воспитание. Избранные произведения . Игра Подарки. Штутгарт. Том №6.р.13-15, (2006).
4. Shodiyeva. Q. O'rta guruh bolalar nutqini o'stirish. p.23-25, (1993).
5. Majitov Sh.M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining musiqiy savodini multimediali mashg'ulotlar asosida shakllantirish. Monografiya. p.3-5, (2021).
6. Abduqodirov A.A., N.X.Begmatova. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti; (tarbiyachilar uchun uslubiy qo'llanma). p.98-101, (2011).